


YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–martida Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rirlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 2554,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 7,4 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 108,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi 2,0 % ga yetdi.



Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



		<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
	I. YaHM	2 199,1	2 554,6	107,4

shu jumladan:

	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	2 117,9	2 430,7	107,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	81,2	123,9	112,5
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	2 117,9	2 430,7	107,2
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	470,0	539,9	100,7
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	955,1	1 103,6	113,3
	sanoat	760,4	860,1	110,6

		Mld. so'm		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	194,7	243,5	123,7
	Xizmatlar	692,8	787,2	103,3
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	138,8	158,0	101,9
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	100,0	117,2	106,2
	boshqa xizmat tarmoqlari	454,0	512,0	103,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2961,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko`rsatkich o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,6 % ga yuqoridir.



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiyligi YaHMning 95,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlari bo'yicha tarkibidagi ulushi 22,2 % ni, sanoat tarmog'i 35,4 % ni, qurilish 10,0 % ni va xizmatlar sohasi 32,4 % ni tashkil qildi.




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2020-yil	2021-yil
I. YaHM, jami		100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,3	95,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,7	4,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati		100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	22,2	22,2
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	45,1	45,4
	sanoat	35,9	35,4
	qurilish	9,2	10,0
Xizmatlar		32,7	32,4
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,6	6,5
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,7	4,8
	boshqa xizmat tarmoqlari	21,4	21,1




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2020- yil





2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 100,7 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 22,2 %), sanoatda – 110,6 % (35,4 %), qurilishda – 123,7 % (10,0 %), xizmatlar sohasida – 103,3 % ni (32,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 101,9 % (6,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 106,2 % (4,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,1 % dan (21,1%) iborat bo`ldi.



**Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,2 f.p. (2020- yilyanvar-martida – 0,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 3,7 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 1,3 f.p.) va qurilish tarmog'i –2,1 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,3 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi– 1,0 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 1,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,4 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,4 f.p.)ga ko'paydi.




**2021- yil yanvar-mart oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)**



2021-yil yanvar-martda YaHM deflyatori indeksi 2020-yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 108,1 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 114,0 % va xizmatlarda–110,0 % qayd etildi.



**Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



**Yanvar-mart oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi
(jamiga nisbatan %da)**



2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 56,2 %ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-martida–59,6 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.